

TIPIK BO'Z TUPROQLARNING SUV REJIMI**Ma'rufjonov Javohirbek***Farg'ona davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: *maqola orqali tuproqlardagi suv rejimi haqida umumiy malumotga hamda aynan tipik bo'z tuproqlarning suv rejimi haqida malumot olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *tuproq, janub, geografik, kenglik, landshaft, tog', yog'in, balandlik, namlik, yillik yog'in, suv, rejim.*

Respublikamiz Sovet Ittifoqining eng janubida joylashgan bo'lib yog'in-sochin bu regionda juda kam. Bu ko'rsatgich yiliga o'rtacha 80-150 mm, tuproqdan sarflanadigan suvning miqdori esa juda ko'p taqriban bir yilda 1000 mm va undan ortiq. Biroq O'zbekiston - katta geografik kenglikda tarqalganligi, har xil landshaft (geomorfologiya) ga hamda o'simliklar qoplamiga ega bo'lganligi sababli xilma-xil tuproq tipi va o'simlik qoplamiga ega. Biroq, shuni ta'kidlash kerak-ki, sug'orilmaydigan va shartli sug'oriladigan yerlarni namlaydigan asosiy suv manbai yog'in-sochindir. Masalan, tog' zonalaridagi o'rmon tuproqlari bahorgi yog'in-sochin vaqtida chuqur qatlamlarigacha (xatto 7 metr gacha) namlanib, o'simliklarning rivojlanishi uchun yetarli miqdorda nam zanasiga ega bo'ladi. Bunday sharoitda o'simlik ildizi rivojlanadigan qatlamdagi (0,5-1 m chuqurlikdagi) namlik iyul oyining oxirigacha yetadi.

Tog'oldi rayonlarida yog'in-sochin tog'li rayonlarga nisbatan birmuncha kam bo'lganligi sababli tuproqlarning namlanish chuqurliklari birmuncha kichik bo'ladi. Bu rayonlarda keng tarqalgan tipik bo'z tuproq qatlamining o'simlik ildizlari maksimal darajada tarqalgan qismda tuproq suvi tanqisligi may oyining oxiri, iyun oyining boshlarida keskin seziladi.

Past tekisliklarda och tusli bu tuproqlarda, ayniqsa cho'l zonasi tuproqlarida yog'in-sochin miqdori yanada kamaygapligi tufayli tuproqlarning namlanish chuqurligi 20-100 sm gacha (ba'zida bu ko'rsatkichdan biroz ortiq.) bo'ladi, o'simlik o'zlashtira oladigan nam miqdori may oyining birinchi o'n kunligidayoq sarflanib bo'ladi, nam yetishmasligi tufayli o'simliklar kovjirab, qo'rib qoladi. Shu sababdan bu yerlarda efemer (bir yillik) o'tlar o'sadi, ayrim holda ular hattoki to'liq qatlam hosil qilmaydi, ko'pincha pakana, nimjon, bo'ladi. Shuning uchun bunday maydonlarda oziqbob o'tlar kam hosil beradi.

O'zbekiston territoriyasi tog', tog'oldi adir va cho'l past tekisliklariga bo'lingan. Agarda ushbu bo'linishga tuproqlarning tarqalishi nuqtai nazaridan qaramoqchi bo'lsak, bunda tog'li o'lkalarda - tog' tuproqlari, o'rmon kashtan tuproqlari va boshqalar tog'oldi adirlarda qisman to'q tusli, asosan tipik va och tusli bo'z tuproqlar: cho'l past tekisliklarda- taqirlar, sur tusli qo'ng'ir, qumloq va qumli sahro tuproqlari va boshqalar tarqalgan.

O'zbekistonda tipik bo'z tuproqlar ancha keng tarqalgan, ular asosan dengiz sathidan 300—800 m balandlikdagi tog' oldi tekisliklari, adir va dasht zonalarini egallaydi. Tipik bo'z tuproqlarning katta qismi sug'oriladigan dehqonchilik bilan band, ularda ekinlardan yuqori hosil olishni ta'minlovchi oziq va suv rejimi yaxshi bo'lganligi uchun xozirgi vaqtda bu yerlar butunlay dehqonchilik sistemasiga jalb etilgan. Yuqori potensial unumdorlikka ega bo'lgan tipik bo'z tuproqlar zonasida — respublikamizning asosiy don ekadigan bog'dorchilik xo'jaliklari joylashgan. Bunday maydonlarda xom ashyo yetkazish tuproq da mavjud bo'lgan tabiiy namlikni tejab, sarflashga asoslangan bo'lib lalmikor dehqonchilik deb yuritiladi.

Tipik bo'z tuproqlar zonasida yillik yog'in-sschin miqdori 300-400 mm ni tashkil etadi, tuproqning namlanish chuqurligi 0,6 - 0,8 m ga yetadi. Tuproqning eng nam payti aprel oyi boshlariga to'g'ri keladi, bu vaqtda suv ayirgichdagi tuproqning 2 m qalinlikdagi qatlamida nam miqdori 420 mm ga yetadi, shundan 230 mm, o'simlik o'zlashtira oladigan foydali aktiv nam hisoblanadi. Lekin bu zonada havo harorati nisbatan baland va nisbiy namlik past bo'lganligidan aktiv namlik may oyining oxirlariga borib batamom sarf bo'ladi. Iyul oyiga kelib tuproqning ustki bir metrli qatlamidagi nam miqdori hatto so'lish namligidan ham pasayib ketadi. Eng ustki 40 sm li qatlamda esa nam bundan ham kam bo'ladi. Tipik bo'z tuproq larda 50 sm dan chuqurlikda namlik butun yil davomida past ko'rsatkichga ega bo'ladi. Buning asosiy sababi, yog'in-sochinlarning ko'p ozligiga qarab tabiiy namlanish chuqurligi bu tuproqlarda 50—60 sm dan (ba'zi yillarda esa 70- 80 sm gacha bo'lishi mumkin) oshmaydi.

Tipik bo'z tuproqli zona yaqin adirlardan iborat. Shuning uchun bunday yerlarda tuproqning yuvilishiga, namning behuda sarflanishiga qarshi keskin chora tadbirlar ko'rilmog'i lozim. Buning uchun o'rim-yig'imdan keyin yer darhol ko'ndalangiga shudgorlanishi zarur. Aks holda suv eroziyasi kuchayadi va tuproqda nam kam to'planadi. Yer shudgorlab qo'yilsa, yoz bo'yi qizigan pastki tuproq qatlamlaridagi nam kuzga borib soviyotgan qatlamlarga bug' bo'lib ko'tariladi, quyuqlashib suvga aylanadi. yog'in-sochin davri boshlangunga qadar tuproqning haydalma qatlamida biroz nam to'planadi. Bu kuzgi don ekinlarining sovuq tushguncha unib chiqishini, birinchi yomg'irdan keyin baquvvat bo'lib o'sishini ta'minlaydi. Bunday maysalar sovuqqa ancha chidamli, ildiz sistemasi kuchli, yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Yer yetilishi bilanoq yengil boronalash tuproq, qatlamlarining havo almashinuvini, yog'in suvlarining tuproqqa yaxshi singishini ta'minlaydi, tuproqning yuza qatlamidagi namning shamol, harorat ta'sirida bug'lanib nobud bo'lishini kamaytiradi.

Shunday agrotexnik tadbirlar qo'llanilgan joylarda tuproqning 2 m li qatlamida o'suv davrida ham o'simlik o'zlashtira oladigan nam jamg'armasi yetarli bo'ladi. Bunda yer sathining qanday bo'lishidan qat'i nazar erta bahorda 2 m li tuproq qatlamida 420-480 mm yoki gektariga 4200-4800 tonna (kub metr) nam to'planadi. Aktiv namlik gektariga 23 tonnadan 3000 tonnagacha yetadi. Bunday sharoitda har

gektaridan 22 s don hosili, 24 s gacha oziqbon somon olinadi. Haydalmagan qo'riq yerlarning har gektaridan o'rib olish mumkin bo'lgan pichan miqdori (qo'ruq vaznda) 54 s ga yetdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboxo'jayev I. Uzoqov P. «Tuproqshunoslik» T: Mehnat 1995.
2. Bohodirov M. Rasulov A. «Tuproqshunoslik» T: O'qituvchi 1975.
3. Sotiboldiyeva G, Ma'rufjonov J, Solijonova D, Toshpo'latova Y. Kaliliy o'g'it konlari va uning ahamiyati. "Modern Science and Scientific Studies" 91-93 b
4. Sotiboldiyeva, G., Abdukhakimova, K., & Niyozov, Q. (2021). About digital mapping of biomicroelements: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1366>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
5. Сотиболдиева, Г. Т. (2018). Фаргона вилояти кольматажланган тупрокларининг биогеохимёвий хусусиятлари ва улардан фойдаланиш.: дисс. Автореф. б. ф. ф. д.(PhD)-Т.
6. Iminchayev R.A Jo'rayeva M.M, Ismoilov M.I, Ma'rufjonov J.G' Farg'ona vodiysi sharoitida "Polovchanka" bug'doy navini oziqlanish tartibotining iqtisodiy samaradorligi «Science and innovation»
7. J.Ma'rufjonov, Solijonova D, G'iyosova Sh, Abdullayeva M (2023) Mikroelementlar va mikroo'g'itlarning qo'llanilishi. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari
8. Исаков, В. Ю., & Иминчаев, Р. А. (2023). ВОДНО-ФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ГИПСОНОСНЫХ ПОЧВ ЮЖНОЙ ФЕРГАНЫ. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 748-753.
9. Иминчаев, Р. А. (2023). ЎСИМЛИК ҚОЛДИҚЛАРИДАН НОАНЪАНАВИЙ ЎҒИТ ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ ВА ШАРОИТЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 310-314.
10. Iminchayev, R. (2022). THE NUTRITION REGIME OF THE POLOVCHANKA WHEAT VARIETY IN THE SOIL CONDITIONS OF THE SOUTHERN FERGHANA DISTRICT. Oriental Journal of Agriculture, 2(01), 11-18.
11. Rakhmatjon, I. (2022). MORAL, EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF ACQUAINTANCE OF STUDENT-YOUTH WITH NATURE. Research Focus, 1(4), 287-290.
12. Teshaboev, N., Mukimov, Z., Iminchayev, R., & Muhammadjonova, S. (2021). EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1348>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
13. Ikromjonovich, T. N., Alijonovich, M. Z., & Ahmadovich, I. R. EFFECTS OF DEEP TILLAGE OF COTTON ROWS ON COTTON YIELD.

14. Tolibjonovna, S. G. Z., & Axmadovich, I. R. (2023, November). KOLMATAJLANGAN YERLARDA BEDANI TUPROQ UNUMDORLIGIGA TA'SIRI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 18, pp. 54-58).

15. Ma'rufjonov J, Solijonova D, G'iyosova Sh, Abdullayeva M (2023). TUPROQNING PAYDO BO'LISHI, MEXANIK TARKIBI HAMDA KLASSIFIKATSIYASI. www.pedagoglar.uz